



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIM
VAZIRLIGINING ZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti "Milliy o'ya, ma'naviyat asoslariga huquq ta'limi" yo'nalishi

203-guruh talabasi Shavxiddinov Jamshidning

REFERAT

MAVZU: MILLIY MA'NAVIYATIMIZNING TAKOMIL BOSQICHLARI



Ilmiy rahbar: _____ Shohaydarova M.

Kafedra mudiri _____ M. Sobirova

Toshkent-2014

REJA:

KIRISH.

- 1. Milliy ma'naviyat tarixiy hodisa sifatida.**
- 2. Bashariyat tarixi va ma'naviyat. Milliy ma'naviyatimizning teran tomirlari.**

ASOSIY QISM:

- 1. Milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilini davrlashtirish muammolari. Milliy ma'naviyatimiz tarixini o'rganishda manbaalar ahvoli.**
- 2. Islomgach amilliy ma'naviyatimizning shakllanish bosqichlari.**
- 3. Ibtidoiy jamoa davrida ilk ma'naviyat unsurlarining shakllanishi.**

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqalarining o'ziga xos ma'naviy olami mavjud. Ushbu ma'naviy olamlar doimo bir xil saqlanmaydi, zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi. Lekin **ma'naviyat** hodisasini tadqiq etish osonish emas, bu hozirgi kunda ushbu ilmni rivojlantirishga urinishlar o'ta qiyinchilik bilan samara berayotganida ham sezilmoqda. Masalan, O'zbekistonda barcha oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat asoslari" maxsus fan sifatida 1997-yildan o'qitila boshlagan bo'lsa, shundan beri bu mavzuda qator tadqiqotlar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari tayyorlandi va nashr etildi. Ularning har biri fan rivojiga ozmi-ko'pmi muayyan hissa qo'shganligini inkor etmagan holda, tan olish kerakki, **ma'naviyat** hodisasining mohiyatini teran ochib beruvchi, sohaning ko'pchilik xodimlarini har jihatdan qoniqtira olgan ta'riflar hanuz keng iste'molga kirmadi. Buning turli sabablari bor. Ammo, bizning nazarimizda, eng birinchi sabab shu kungacha **millat ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar** biror kitobda aniq belgilab olinmaganida edi. Ayni shu vazifa O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "**Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**" asarida birinchi marta aniq va mukammal amalga oshirildi.

Darhaqiqat, har bir insonning ma'naviy dunyosi o'ziga xos hududsiz bir olam. Ammo har bir inson muayyan bir jamiyatda, muayyan bir insonlar jamoasi ichida yashaydi, muayyan bir millatga mansub bo'ladi. Tabiiyki, har bir alohida inson o'sib-ulg'ayar ekan, unga atrof-muhitida yashayotgan insonlarning ta'siri bo'ladi. Insonning ma'naviy kamoloti ayni shu muhitning ta'siridan boshlanadi. Har bir shaxs, o'zi buni chuqur idrok qiladimi, yo'qmi, qat'iy nazar, biror elat yo millatga mansub bo'lmay iloji yo'q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson "*o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat*

*qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi*¹. Buning ma'nosi, **shaxs ma'naviyati** voqelikda millat ma'naviyatidan ayru, undan tashqarida bo'lmaydi. Shunday ekan, millat ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, alohida shaxs ma'naviyatini ham o'rganish imkondan tashqari. Agarchi, tarixan va nazariy jihatdan **millat ma'naviyati**, tom ma'noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyatining majmuidan iborat bo'lsa-da, voqelikda har bir shaxs ma'naviyati **millat ma'naviyatidan** oziqlanadi, uning asosida kamol topadi.

Kurs ishining maqsadi. Agar bir millat vakili o'z ajdodlarining ma'naviy merosidan butkul bebahra qolgan bo'lsa va muayyan sharoitda to'liq boshqa millat madaniyati ruhida tarbiya olsa, uni endi o'z millatining to'laqonli vakili deyish qiyin. Ammo eng yomon holat Sho'rolar davrida yuz berdi. Bu davrda sun'iy birlashtirilgan ulkan bir hududning barcha aholisi, millatidan qat'iy nazar, kuchli va har taraflama taziyoq ostida muayyan maqsadlarda maxsus ishlab chiqilgan yolg'on mafkura ruhida majburiy "tarbiya" qilindi. Bu zug'umga barcha ham birday bo'y bergani yo'q, ammo afsus bilan e'tirof qilishga to'g'ri keladiki, bunday vahshiyona va makkorona "ta'lim-tarbiya" tizimi juda ko'p insonlar ongida og'ir asoratlar qoldirdi. Eng achinarlisi, bugungi aksariyat ijtimoiy-gumanitar sohaga mansub ziyolilarimiz bunday mafkuraviy taziyoqdan eng ko'p ziyon ko'rdilar. Mustaqillik tufayli biz bugun endi ushbu noxush asoratlarni ongimizdan bartaraf qilishning qulay imkoniyatlarini qo'lga kiritdik. Ammo bor imkoniyatdan unumli foydalanish uchun ham inson o'z holatiga to'g'ri baho bera bilmog'i, o'z ustida jiddiy mehnat qilishga havsala qilmog'I kerak bo'ladi.

¹ Ислом Каримов. Асарлар. 1-жилд, б. 81

Kurs ishining vazifalari. Kurs ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1. Milliy ma'naviyat tarixiy hodisa sifatida talqin etish.**
- 2. Bashariyat tarixi va ma'naviyat. Milliy ma'naviyatimizning teran tomirlarini yoritish.**
- 3. Milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilini davrlashtirish muammolari. Milliy ma'naviyatimiz tarixini o'rganishda manbaalar ahvolini o'rganish.**
- 4. Islomgacha milliy ma'naviyatimizning shakllanish bosqichlarini qiyoslash.**
- 5. Ibtidoiy jamoa davrida ilk ma'naviyat unsurlarining shakllanishining mohiyatini aniqlash.**

1. Milliy ma'naviyat tarixiy hodisa sifatida.

Xalq ma'naviyatini, millat ma'naviyatini sun'iy ravishda, qandaydir o'ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa'rida nozi qolib, teranlik kasb etib keladi.

Bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz tadqiqotchisiga oson emas, u endi sho'rolar davri faylasuflaridan farqli o'laroq, o'z mulohazalarini mavjud dogmalar qolipida, mavhum mantiqiy mulohazalar tarzida emas, balki millatning ma'naviy merosiga, bu sohada ming yillar davomida ajdodlar erishgan beqiyos yutuqlarga asoslangan holda olib borishi talab etiladi, ya'ni ma'naviyatga oid fanlar, ma'lum ma'noda, **tarixiy-nazariy fanlar** bo'lib, ularning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham undagi nazariy xulosalarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, milliy ma'naviyat, avvalo, **tarixiy hodisa**dir. O'rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ular bosib o'tgan necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir. Biz bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz nazariyasini yaratish uchun avvalo uning tarixiy takomilini batafsil ko'zdan kechirib chiqishimiz kerak bo'ladi. Ayni shu masala bilan shug'ullanuvchi fan "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi" bo'lib, uning asosiy mavzu doirasi – mustaqil O'zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan milliy ma'naviyatimizning takomil tarixi, asosiy qadriyatlari, shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma'naviy merosimiz an'alariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar tizimidan iborat.

Ammo milliy ma'naviyat tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo milliy ma'naviyat tarixi

millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga, va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Millatning ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni uning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ma'naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmunda o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Chunki buning uchun ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini, hatto irsiy xotirani ham barbod qilish kerak. Unday kundan Alloh o'zi asrasin!

Demak, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy (o'tmish tarix jarayonida yuz berib borgan), ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqelik bo'lib, Albert Eynshteyn kashf etgan to'rt o'lchamli (zamon va makonda bir paytda mavjud bo'lgan) voqe olam ushbu ma'naviy olam bo'lsa ajab emas. Balki ma'naviy olam o'lchamlari cheksiz bo'lib, to'rt o'lchamli qolipga ham sig'mas.

2. Bashariyat tarixi va ma'naviyat. Milliy ma'naviyatimizning teran tomirlari.

«Milliy ma'naviyat desak, milliy biqlikka yo'l qo'yamiz, umuminsoniy ma'naviyat haqida fikr yuritish kerak», degan gapni na ma'naviyat nimaligini, na milliylik va umuminsoniylik orasidagi nisbat qanday bo'lishini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, ilmiy savodi chala odamlargina aytishi mumkin. Bir insonga o'z milliy ma'naviyatini tugal anglab yetish uchun ham, Alloh yuz yil umr bersa, kamlik qiladi. Hindiston madaniyatidan bir chimdim, Yevropa ilmidan ikki jumla, islom dunyosi ma'naviy merosidan ikki cho'qim olib, «jahonshumul» ma'naviyat nazariyasiga da'vo qilgandan ko'ra, o'zbek yurtida yashab o'tgan buyuk allomalar ijodini imkon darajasida izchil o'rganib, shu bilimlar asosida milliy

ma'naviyat haqida fikr yuritgan afzal emasmi? Biz «ma'naviyat nima?» degan savolga nemis yohud ingliz, rus yoki polyak, hind yoki yapon qanday javob berishi mumkinligini bashorat qila olmaymiz. Umr bo'yi o'z milliy ma'naviyatini, uzoq asrlar davomida o'z millatiga mansub bo'lgan mintaqa madaniyati vakillari ijodini asl manbalardan o'rganib kelgan odam ham milliy ma'naviyatimizni mukammal anglab yetdim, deb da'vo qilishga xijolat bo'ladi. Bu ish aslida ko'pchilikning ishi. Millat ma'naviyati uchun butun millat qayg'urishi kerak.

Jahon madaniyati – turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat bo'lib, mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat hayotda asli mavjud emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida avval muayyan kichik jamoalar doirasida shakllangan madaniyat unsurlari bora-bora kengroq miqyos kasb etib, turli elat va millatlar, mintaqalar madaniyati darajasiga ko'tarilib bordi va nihoyat Yangi davrga kelib yaxlit bir voqelik sifatida idrok etila boshladi.

Parijda, YUNESKO ijroiya kengashida so'zlagan nutqida Prezident Islom Karimov aytganidek: “vatanimiz asrlar mobaynida jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblangan”². Ammo yurtimizda 70 yil hukmronlik qilgan sobiq totalitar tuzum makkorlik bilan o'z asoratiga olgan xalqlarning buyuk o'tmishini avlodlar xotirasidan o'chirmay turib manfur maqsadlariga yeta olmasligini yaxshi bilar edi. Sh usababli tinimsiz kurash g'oyasi nihayot ma'nosi deb e'lon qilgan “dohiylar”ning sodiq shogird va izdoshlari nafaqat tirik “dushmanlar” bilan kurashdilar, balki millatlarning o'tmish ma'naviy merosi bilan ham tinimsiz “jang” qildilar. “Din - afyun”, diniy ilm peshvolari, tasavvuf ulamolari “ashaddiy reaksioner”, barcha o'tmishdagi hukmdorlar - qonxo'r, bosqinchi (faqat ayrim rus podshohlari bundan istisno etildi), o'tmish allomalar – dunyo qarashi cheklangan, shoirlar – maddoh va hokazo da'volar qilindi. Bunday qora tamg'alar qaramlik asoratiga tushgan barcha xalqlarning boy ma'naviy

merosiga bosib chiqildi. Hatto uyidan eski arab yozuvida kitob topilgan odamlar davlatga qarshi jinoyatda ayblangan davrlar bo'ldi.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, "progressiv-reaktsion" atalmish zo'raki qoliplarga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur'oni karim, hadisi shariflar birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi, Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa "sovet davrida" hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'lga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari – Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileylari millatimizning ruhida poklanish tuyg'ularini uyg'otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug'vor mujassamasi o'rnatilishi o'zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o'chmas yog'du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma'rifat, adolat, hurriyatsari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o'rin ola boshladi. "Bosmachi" deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o'z qadrlariga loyiq Sovet davrida bizda, birinchi navbatda, falsafa, qolaversa, boshqa barcha inson va jamiyatga oid fanlar ham Yevropa madaniyati an'analari asosida, uning ham asosan bir yo'nalish – marksistik materializm yo'nalishi bilan bog'liq holda shakllandi. Hatto o'z ma'naviy merosimizni ham begona qoliplarga moslab o'rganishga urindik. Shunday ekan, bugungi kunda milliy ma'naviyatimizni nazariy asosda jiddiy o'rganishga kirishishimiz bejiz emas. O'zbek xalqining madaniyati, ma'naviyati hech qachon **jahon madaniyati**, ma'naviyatidan tamomila ayru, alohida bir yo'ldan rivojlangan emas. Hamisha boshqa xalqlar ma'naviy boyligini ijodiy o'zlashtirib, o'zi ham jahon madaniyatini boyitib borgan. Shu bilan birga millatimizning o'z mustaqil ma'naviy qiyofasi mavjud, u asrlar, balki ming yillar davomida shakllangan, u **umuminsoniy qadriyatlarga** yot emas, ammo

Borliqning oliy haqiqatiga nisbatan o'z talqinlari, o'z yondoshuvi, o'z tushunchalariga ega. Ijtimoiy sohada asl haqiqatni anglab yetish tabiiy va aniq (matematik) fanlarga nisbatan bir necha barobar mushkulroqdir. Chunki ijtimoiy sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o'rganish kerak. Yevropa mamlakatlari boshidan kechirgan davlatchilik tarixini o'rganish asosida Osiyodagi ushbu soha muammolarini anglab yetish mumkin deb o'ylagan odam qattiq yanglishadi. Markschilar butun insoniyat tarixiy takomiliga tatbiq etmoqchi bo'lgan informatsion nazariya ham ayni shu sababdan o'zini oqlamadi. **Umuminsoniy qadriyatlar** – ularni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, aslida dastlab har bir millat ma'naviy qadriyatlari o'ziga xos tizim shaklida namoyon bo'ladi, keyinroq har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi davomida asta-sekin shakllanti-rib borgan bunday tizimlar turli elat va millatlarning o'zaro munosabatlari tufayli bir-birini tushunish, barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarni tadrijiy anglab borish jarayonida asta-sekin umuminsoniy mohiyat kasb etib boradi. Zotan, milliy ma'naviyatimiz zamirini bizni o'zgalardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar tashki letadi.

Har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy eta olmaydi. "Odamzod birovning bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi", deydi Yurtboshimiz³. Har bir xonadonning o'z tartib-qoidalari bo'lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o'z andoza-o'lchovlari, qonun-qoidalari bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy-jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma'naviyat hayotda asli mavjud emas, jahon madaniyati turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo'lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o'z qiyofasi, o'z

³ Ислам Каримов. Асарлар. 1-жилд, с.12

fe'l-atvori, fikr-andishalari, o'z hayot yo'li va orzu-niyatlariga ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan mahluqotning bir toifasi – bani odamga mansub bo'lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muayyan qadriyatlar majmui ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'r-ko'rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo'lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko'p marta isbotlagan.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiyaloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaq madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaq madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo'shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati – bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday bebaho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborishimiz mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

Hech qachon bir inson haqiqatning tagiga yetgan emas. Chunki Borliq haqiqati – cheksiz. Uni anglab yetish uchun, birinchidan, shu kungacha insoniyat erishgan barcha yutuqlarni o'zlashtirish lozim bo'ladi. Ammo butun insoniyat yaratib qoldirgan ilmiy merosni mukammal o'zlashtirish bir kishi uchungina emas, hatto kattaroq ilmiy jamoalar uchun ham og'irlik qiladi. Ikkinchidan, barcha insoniyatning yetishgan bilimlari ham Borliq haqiqati oldida ummondan tomchidek emas. , voqe dunyo haqidagi tasavvurlarimizni qanday shakllantirganimiz maqsadga muvofiqroq?

Umuminsoniy ma'naviyat bo'lmaydi, umuminsoniy qadriyatlar esa har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos va maxsus tizim shaklida namoyon bo'ladi. Chunki milliy ma'naviyat tarixiy hodisa, o'zbekning ma'naviy takomili nemis

yoki xitoy xalqi boshidan kechirgan tarixiy jarayonlardan butkul farq qiluvchi siyosiy-madaniy makon va zamonda yuz bergan. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni tamomila o'ziga xos shaklu shamoyilda ifoda etishining siri shu yerda.

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi. Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi.

Ma'naviyat doimo milliy bo'ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo'lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma'naviy dunyosi, ma'naviy qiyofasi bir paytning o'zida ichki mohiyatiga, o'zak tomirlariga ko'ra, o'zga xalqlar ma'naviyati bilan umumiy jihatlarga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo'ladi. Ma'naviyatning ta'rifini millat ma'naviyatiga tatbiq etadigan bo'lsak, uni **millat ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik**, deb atash joizdir. Shunday ekan, **ayni millatimizni o'zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar milliy ma'naviyat zamirini tashkil etadi**. Faqat buni jo'n tushunish ham, jo'nlashtirib talqin etish ham – xato. Ma'naviyatimizdagi eng umuminsoniy g'oyalar ham nihoyatda milliy bir tarzda o'zligini namoyon qiladi, ular boshqa millat ma'naviyati unsurlaridan nusxa ko'chirish shaklida namoyon bo'lmaydi.

Milliy ma'naviyatimiz an'analari me'yor qonuniga tayanadi. Murakkab voqelikning turli jihatlari aro mutanosiblik, uyg'unlik bo'lishigina insoniyat taraqqiyoti uchun, hayot mukammalligi uchun asosiy shart ekanligini ulug'

allomalarimiz o'z davridayoq anglab yetganlar va o'z asarlarida ifodalab berganlar.

Bugun mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti jahon tajribasi va milliy an'analarimizga tayangan holda mutlaqo yangi model yaratmoqda va u amaliy hayotga tatbiq etilib, shu kungacha o'zini oqlab kelmoqda. Uning asosida mustaqil davlatchiligimiz, iqtisodimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz rivojlanib va taraqqiy topib bormoqda. Demak, bizning ijtimoiy sohalaridagi izlanishlarimiz ayni shu umum metodologik asosga tayanmog'I zamon va makon ruhining taqozosidir.

3. Milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilini davrlashtirish muammolari. Milliy ma'naviyatimiz tarixini o'rganishda manbalar ahvoli.

Milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomil jarayoni o'ta murakkab hodisa bo'lib, uni chuqur va har taraflama tadqiq etish uchun bir necha avlod jiddiy ter to'kishi kerak bo'ladi. Bizning ushbu qisqa kursdan maqsadimiz esa hadd-ul-imkon bu yo'ldagi dastlabki urinish bo'lib, faqat milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomil jarayoniga yengil bir nazar tashlab o'tish harakati sifatida baholash mumkin. Albatta, barcha asosiy jihatlarni qamrab olish qiyin. Masalan, xalq og'zaki ijodi deb ataluvchi behudud ma'naviyat ummoni haqida, ko'chmanchilik madaniyatida aksetgan ma'naviyat unsurlari haqida maxsus to'xtalish imkonini topmadik. Urf-odatlarimiz, marosimlarimiz ma'naviyatining tarixiy takomili haqida ham maxsus tadqiqotlar lozim. Biz asosan yozma merosga tayandik, ammo shu ham to'liq qamrovda emas. Albatta, qo'limizdan kelganicha, aqlimiz yetganicha harakat qildik.

Insoniyat tarixiy takomili hozirgi Yevropa ilmida 4 asosiy davrga ajratiladi:

1. Ibtidoiy jamoa. 2. Qadimgi dunyo. 3. O'rta asrlar. 4. Yangi davr.

Ammo qadimshunoslar (arxeolog va paleontologlar) masalaga biroz o'zgacha qaraydilar. Ular 1) **tosh asri**, 2) **bronza asri**, 3) **temir asri**, deb ibtidoiy jamoa va qadimgi dunyoni uch bosqichga bo'lib o'rganadilar.

Yuqorida ham aytib o'tilganidek, har bir xalq ma'naviyatining rivojlanish tarixi turli sabablarga ko'ra o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari ma'naviyatimizning tarixiy takomil jarayoni siyosiy tarixdan ham, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish bosqichlaridan ham, madaniyat tarixidan ham muayyan darajada farq qiladi. Bugungi kun jahon ilmining tajribasi ko'rsatib turibdiki, avvalo, yaxlit tarixiy-ma'naviy jarayonning har qanday tasnifi shartli va noto'liq bo'lishi o'z-o'zidan ma'lum. Ammo, baribir, bu borada qandaydir o'zak tomirlar, asosiy bo'g'inlar ajratib olinmasa, umuman ilmiy mulohaza yuritib bo'lmaydi.

Milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomili o'lkamiz xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq va ushbu sahnda yuz beruvchi hodisadir. Faqat madaniy taraqqiyot o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etsa, millatning ma'naviy kamoloti bugungi kungacha o'z dolzarbligini saqlab kelayotgan asosiy o'zak unsurlarga tayangan holda belgilanadi. Shu sababli milliy ma'naviyatimizning necha ming yillik takomilini bir qator mavjud alomatlariga ko'ra dastlabki tarzda uch asosiy davrga ajratib ko'zdan kechirishni maqbul bildik:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimizning shakllanishi.

2. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili.

3. Yangi davrda jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz nisbati.

Bu davrlar o'z ichiga olgan muddatlariga ko'ra o'zaro aslo teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr VIII-IX asrni o'z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o'lkamiz – Turkiston uchun 5 asr chamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko'proq fojialarga to'liq bo'ldi.

Ushbu davrlashtirishning asosida ko'proq tashqi belgilar yotadi. Ularning eng muhimi manbalar ahvoli bilan bog'liq. Islomgacha ma'naviyatimiz takomili haqidagi eng muhim manbalar o'lkamizning bugungi milliy hududlaridan tashqarida topilgan bo'lib, asl matnlarning yaxlit va nisbatan mukammallari «Avesto» kitobi va turkiy toshbitiklardir. Ikkinchi qismi bilvosita ma'lumotlar

bo'lib, qadim Shumer, Bobil va Ashshur, qadimgi Misrva Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shohan shohlaridan qolgan toshbitiklarda aks etgandir. Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo'lib, ular bevosita yurtimiz hududidan yoki atrof-mintaqadan topilgan moddiy ashyolar va inshootlar bilan bog'liq. To'rtinchi guruh manbalar so'nggi davrlargacha og'zaki an'ana holida yetib kelgan xalq adabiyoti, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar, xurofiyirim-sirimlar bo'lib, ular yuzasidan uzil-kesil xulosalar chiqarish, ayniqsa, murakkabdir.

Umuman, bunday turli guruh manbalar o'zaro jiddiy qiyosiy tahlilni talab qiladi va oxir-natijada ham ko'pincha muayyan darajada taxminiy xulosalar chiqariladi. Islomgacha ma'naviyat haqidagi tasavvurlarimiz, shu sabablarga ko'ra, baribir uzil-kesil bo'lishi qiyin va qancha qadim zamonlarga kirib borsak, shuqadar tarixiy haqiqat va afsonalar qorishib, chatishib ketadi.

Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va ishonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy yondoshuv imkoni jiddiy tarzda oshadi va millatning ma'naviy kamolot bosqichlari mintaqa madaniyat idoirasida aniq tarixiylik kasb etadi.

Uchinchi davr bizga eng yaqin bo'lgani sababli uni o'rganish masalalari tadqiqotchilarning ancha keng doirasini qamrab olgan, chunki manbalar asosan o'zbek, rus va qisman boshqa qardosh xalqlar tillarida saqlanganligidan bu sohada imkoniyatlar yetarli. Mustaqillikkacha ba'zi arxivlar davlat siri hisoblanib, tadqiqotchilar nazaridan pinhon tutilgan bo'lsa, bugun ularning eshiklari ochildi va tabiiyki, matbuotimizdagi eng ko'p nashrlar ushbu Yangi davr ma'naviyati muammolariga aloqador bo'lmoqda.

4. Islomgacha milliy ma'naviyatimizning shakllanish bosqichlari.

Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni birinchi qismida Chin xoqonining o'g'li Farhod tilsimlangan ko'zgu sirini bilish qasdida Yunon yurtiga safarga chiqadi. Bu yo'lda u avval dahshatli ajdahoni, so'ng zardushtiy dinidagi yovuzlik ruhi Axrimanni va nihoyat temir tanli tilsimni yengi bo'tib, donishmand

Suqrot suhbatiga yetishadi. Suqrot teng baland tog' bag'ridagi g'ordan joy olganedi. Navoiyshularnialohida ta'kidlab deydi:

*Bu **uch manzildan o'tkarganga mahmil***

*Deyi lganto g'erurt o'rtinchimanil.*⁴

Demak, Farhod Suqrotga yetishguncha **uch manzilni** bosib o'tganligi ma'lum bo'lmoqda. Navoiyning majoziy tasvirida **birinchi manzildagi ajdahoni** – ibtidoiy tosh asri ma'naviyatida inson tabiatidagi yovvoyilik timsoli, **ikkinchi manzildagi Axrimanni**- bronza davri «Avesto» madaniyatidagi asotir tafakkurga xos xurofotlar timsoli, **uchinchi manzildagi temir odamni**- o'z nomi bilan **temir davri** – harbiy demokratiyaga asoslangan ulkan imperiyalar davrida olib borilgan ayovsiz qirg'in urushlar va shafqatsizlik timsoli deb talqin qilish mumkin. Shahzoda Farhod timsolida buyuk turk elati asta-sekin o'zining ichidagi dushmanlari - yovvoyilik, xurofot, shafqatsizlik xislatlarini bir-bir yengib o'tib, ma'naviy kamolot bosqichlaridan donishmandlik sari ko'tarilib bordi. Bular – badiiy adabiyotdagi majoziy timsollartalqini. Ammo voqe hayotda ham **millatimizning ma'naviy takomili** deyarli shunday izchillikda rivoj olgan deb tasavvur qilsak, haqiqatdan uzoq bo'lmaydi.

Ma'lumki, inson jamoa bo'lib yashaydi. Islom mintaqa madaniyatining buyuk nazariyotchilaridan, XIV asrning yirik faylasuf-tarixchisi va siyosatshunosi, Amir Temur gazamondosh va suhbatdosh bo'lgan Ibn Xaldun (1332-1406) inson jamoalarini ikki toifa yoki bosqichga ajratadi. Birinchisi – **ibtidoiy jamoa**, ya'ni urug' va qabila jamoasi bo'lib, bunda insonlarning bir jamoaga uyushuvi qon-qardoshlik munosabatlariga asoslangan bo'ladi. Bu davrda aksariyat insonlar o'zligini faqat o'z jamoasi, nari borsa, qabila va elati miqyosida anglab yetgan. Shu sababli o'zi bilan nasliy qon-qarindoshlik munosabatlarida bo'lmagan yoxud shunga teng bitimlar hosil qilmagan begona jamoa, urug' va elat vakilini nafaqat qabiladoshlari bilan teng sanamagan, balki uning inson darajasidagi qadrini ham idrok etmagan. Qadim johiliya arablarining hayotidan

4 Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 8-жилд. Т.-«Фан»- 1991, б. 125

xabar beruvchi manbalar, masalan, "Ayyomi arab"da tasvirlangan qabilalar orasidagi ayovsiz jangu jadallar, o'zga qabila a'zolari mulkini toroj qilib, ayollari, bolalarini qul-cho'riga aylantirib, shuning hisobidan qabiladoshlariga ziyofat berishlar odatiy hol hisoblanib, yana bunday bedodliklarning "qahramonlik" sifatida she'riyat davasf etilishi kabi holatlar bunga dalil bo'la oladi.

Ma'naviy kamolotning yuqoriroq bosqichiga ko'tarilgan insonlar uchun xos bo'lgani kkinchi bosqichdagi jamoani allomalarimiz "**shahar jamoasi**" deb ataganlar. Asli bu tushuncha faqat "shahar" emas, "davlat" ma'nosini ham bildirgan. Yunonlarning "polis" so'zi bugun biz tushungan "shahar"ni emas, Afina, Sparta kabi **shahar-davlat**larni anglatganligini dunyo tarixidan bilamiz. Insonlar jamiyatida ilk davlatning paydo bo'lishi asl ibtidoda shaharlar shakllanishi bilan bog'liq. Shu sababli yunonlardagi "polis" (shahar) so'zidan Yevropa mintaqasida "politika" (siyosat, ya'ni insonlararo muomala tartib-qoidalari) tushunchasi shakllangan bo'lsa, islom dunyosida arabcha "madina" (shahar) so'zidan "madaniyat" tushunchasi shakllandi. Bu tushunchalar kelib chiqish mohiyatiga ko'ra tutash ekanligi shundan ham ma'lum.

Ilk shaharlarda urug' o'rniga mahalla, qabila o'rniga elat shakllana boshladi. Ammo ibtidoiy jamoadan o'sib chiqqani sababli, unda qabilachilik davrining ko'p xurofotlari saqlanib qolgan edi. Masalan, o'zlarini yuksak madaniyat egasi deb bilgan qadim yunonlar o'zga xalqlarga past nazar bilan qarab, aslo ularni o'z millatdoshlari darajasida ko'rmas edilar. Ularni o'ldirish, yerlarini bosib olish, mulklarini o'zlashtirish jinoyat emas, balki jasora tnamunasi sifatida qabul qilinardi. Xatto qadimYunon elining eng ulug' allomasi Aristotel ham barcha huquq va imtiyozlarni faqat o'z xalqiga – yunonlarga lozim ko'rgan, dunyodagi o'zga elat vakillariga “varvar” (yovvoyi) deb qarab, ularga faqat qullikni ravo bilgan. Yunon demokratiyasi xuddi shu dunyoqarashga muvofiq bo'lib, faqat ozod ellinlarga taalluqli edi, qullar bu demokratiyadan tashqari hisoblanardi.

Shunday vaziyatda yengilgan qabila vakilini qatl etmay, qul sifatida saqlab qolish g'oliblar nazarida balki mag'lubga nisbatan himmat ko'rsatish deb baholangandir. Quldorlik tartib-qoidolari ilk imperiyachilik davri mahsuli bo'lib, ibtidoiy urug' jamoa asosida paydo bo'lgan ilk shahar-davlatlardan ba'zilarining o'zgalari ustidan qudrat kasb etishi bilan bog'liq. Bu davrda ahli bashar muayyan darajada rivojlangan madaniyat bosqichiga erishgan bo'lsada, aksariyat xalqlar ongida hanuz **asotir tafakkur** hukmron edi. *Asotir tafakkur – Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar odamining fikrlash tarziga xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g'ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda.*

Asotir tafakkur Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, unda aksariyat insonlar mavhum tushunchalarni moddiy voqelik narsa-hodisalaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar. Mushriklikning kelib chiqishi ham inson ongi rivojining ayni shu darajasi bilan bog'liq. Islomgacha hukmron bo'lgan **johiliya davri** deganda ham inson ongining asotir tafakkur darajasidagi holati nazarda tutiladi.

Ibtidoiy jamoa inson hayotining iqtisod, siyosat, ma'naviyat kabi turli sohalarini bir-biridan ajralmagan holda tasavvur etgan, hayotiy taomil, huquq va axloq, din va e'tiqod bir-biridan alohida, mustaqil holda mavjud bo'lgan emas. Shunday sharoitda siyosiy hukmronlik, iqtisodiy mulkka egalik, ma'naviy qudrat bir-biri bilan chatishib, bir sohada qudratli bo'lgan inson boshqa sohalarni ham tasarruf etishga intilar edi. Siyosiy hukmronlik qo'lida bo'lgan odam ma'naviy, iqtisodiy sohalarda ham o'z qudratini yoyishga harakat qilar yoki iqtisodiy qudrat – **mulk egasi** siyosiy, ma'naviy sohalarga ham da'vo qila boshlardi.

Imperiylar davrida qabilalar va shahar-davlatlar aro hokimiyat uchun kurashlar avj olib, unda g'olib chiqqan sulola atrof-voqelikni, tabiat unsurlarini va moddiy boyliklarni qanday tasarruf etsa, o'zga qabila, urug', jamoa vakillari

bo'lmish insonlarni ham shunday tasarruf etishga urindi. Natijada «mulk» tushunchasi siyosat yo'nalishiga ham kirib keldi, u nafaqat yer-suv, hayvonot va buyumlarga, balki yengilgan urug', qabila, elat vakillariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. Yurt **mulk** ataldi, hukmdor **malik** bo'ldi.

“**Avesto**” kitobi mazmunida **asotir tafakkur** keng miqyosda o'zligini zohir etgan. Jumladan, hukmdorlik huquqining belgilanishida “arr” (“Avesto” tilida “xvarno”) printsipli qonuniyasos sifatida qabul qilingan. Uning ma'nosi shuki, oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning bir vakilidan ikkinchisiga o'tishida muayyan ilohiy belgi sodir bo'ladi, ya'ni muayyan bir jonivor, qush yoki yog'du shu'las hukmdorlik katanlangan kishini ajratib ko'rsatadi.

Xalqimiz orasida tarqalgan “falonchining boshiga baxtqushiqo'nipti” iborasi ushbu qadim an'ananingizlariga ishora etadi. “Farr” odatda hukmdor sulola vakillari bilan bog'liq tasavvur etilgan. Erondagi Ahmoniylar, Sosoniylar davrida ushbu printsipga izchil rioya etilgan.

Asotir(mif) – ibtidoiy inson ongida Borliq haqiqatining xayoliy timsollar vositasida ifodalanishi. Hozirgi zamon odami asotirni afsona sifatida tushunadi, ammo qadimgi dunyo odamlari asotirning Borliq haqiqatini ifodalashiga shubha qilmaganlar. Masalan, qadimgi yunonlar Zevs, Apollon, Afrodita kabi turli sanamlarni Olimp tog'ida abadiy yashaydi deb tasavvur qilganlar va ular sharafiga ibodatxonalar qurib, qurbonliklar keltirganlar. Asotir va badiiy asarning umumiy tomoni Borliq haqiqatini timsollar vositasida anglash va anglatishga urinish bo'lib, ularning o'zaro farq qiluvchi tomoni – asotirni o'z davrining odami haqiqat deb qabul qilgan, san'at asarini esa insonlar mutlaq haqiqat deb o'ylamaydi, balki ibrat maktabi sifatida tushunadi. Oliy ilohiy hukmdor nomidan yurtni boshqaruvchi «farr» egasi – monarx (shohanshoh, qirol, xalifa, sulton, malik) statusi mintaqada shunday paydo bo'ldi. U mutlaq hukmdor bo'lib, faqat Tangri hukmlariga itoat qilardi. Johiliya davrida “farr” sohibining hukmi mutlaq bo'lib, unga hech kim e'tiroz bildirishga haqqi bo'lmagan. “Xalq

hukmi”, ”xalq irodasi” degan tushunchalar u davr uchun butkul notanish edi. Demak, johiliya davrida barcha insonlar teng qadr topgan emas edi.

Bu tartib-qoidalarining jiddiy o'zgarishi Iso alayhis salom da'vati bilan boshlandi, deyish mumkin. Iso alayhis salomgacha yuborilgan payg'ambarlar har biri bir qavmga Alloh haqiqatidan xabar bergan bo'lsalar, Ruhulloh barcha insoniyatga tegishli **Haqiqat** xabarini keltirdi. U birinchi bo'lib, barcha insonlar yagona Tangri oldida teng, o'zaro og'a-ini, opa-singil, birodar deb, Alloh hukmini e'lon qildi. Ammo bu Oliy haqiqat osonlikcha qabul qilingani yo'q. Avvalo, bunday ulug' xabarni bergan payg'ambarni siyosiy hukmronlikni qo'ldan berishni istamagan yunon hukmdorlari va yahudiy ulamolari birlashib, chor mixga hukm etdilar. Keyinchalik ham, Iso da'vati ilk cherkov otalari talqinida o'zgarishga uchrab, adolatli jamiyat yerdan osmonga ko'chirildi, inson ruhining ozodligi esa cherkov hukmlariga bog'lanib qoldi. Butun O'rta asrlarda xos va avom, zodagon va fuqaro orasidagi real farq saqlanib qola berdi. Yevropada cherkov va feodallar o'zaro ziddiyatlaridan qutula olmagan bo'lsalar ham, avomga nisbatan imtiyozlarini saqlab qoldilar. "O'rta asrlar" degan tushuncha behuda emas, bu davr insoniyat uchun Qadim dunyodan Yangi tafakkur tarziga **o'tish** bosqichidir.

VII asrga kelib, Muhammad(S.A.V.)ga nozil etilgan Qur'oni karim oyatlarida nihoyat uzil-kesil haq botildan judo etildi, insonlar yagona Allohning yer yuzidagi xalifalari ekani ochiq-oydin bayon etildi. Xalq hokimiyati, ozod fuqarolar jamiyatiga tayanuvchi tuzumning umumbashariy ma'naviy asoslari, shunday qilib, Tavhid ta'limotida mujassam bo'ldi.

5. Ibtidoiy jamoa davrida ilk ma'naviyat unsurlarining shakllanishi.

Inson - ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lgan (yagona) moddiy (biologik) mavjudot. Qur'oni karim oyatlarida ta'kidlanishicha, har bir inson Alloh tomonidan "yer yuzi ning xalifasi" qilib yaratilgan, shunday ekan, butun moddiy olam uning tasarrufida va u dunyodagi barcha mavjudot taqdiri uchun mas'uldir. Insonning irodasi erkin va shu sababli har bir xatti-harakati uchun

*Alloh oldida javob beradi. Inson o'z ma'naviy kamolot imkoniyat-larini yuzaga chiqara boshlagan sari tom ma'noda **Shaxsga aylana boradi.***

Shunday qilib, milliy ma'naviyatimiz takomilining eng qadimgi davrini 3 bosqichga ajratib o'rganish ma'qul ko'rindi. Ularning birinchisi **ibtidoiy jamoa** (Ibn Xaldun iborasi bilan «badaviya jamoasi») davrida **inson ma'naviyatining ilk shakllanish jarayonini** o'z ichiga olib, uni **eng qadimgi ma'naviyat bosqichi** deyish ham mumkin. Qur'oni karimning «Tin» surasi 4-oyatida aytiladi: «Laqad xalqna-l-insanafi ahsani taqvim. Summara dadnahu asfalasa filin...». (so'zma-so'z tarjimasini: «Dar haqiqat, biz insonni eng ko'rkam shaklu shamoyilda yaratdik. So'ngra uni asfalaso filinga qaytardik...»). «Asfalaso filin» so'zi «eng tuban holat» deb tarjima qilinadi). Alloh taolo insonni yaratar ekan, unga nihoyatda ulug' risolat taqdir etdi, ammo jannatdan yerga tushgan inson kamolot yo'lini eng tuban holatdan asta-sekin yuksak ma'naviy ufqlarga intilish bilan boshladi.

Moddiyunchilar **insonning** boshqa biologik mavjudotlardan farqlanishini ming yillar davomida yuz bergan uzoq muddatli takomil jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Natijada o'z-o'zidan insonni hayvondan aniq farqlovchi chegara masalasi muammoga aylanadi. Aslida marksistlar da'vo qilganidek, insonning hayvondan farqi mehnat tufayli emas (ko'plab uy hayvonlarini Inson mehnat qilishga majbur qiladi), balki nikohning tartibga solinishi bilan boshlanadi, desak to'g'ri bo'ladi. Tarixchi olimlar bashariyat tarixining boshlanishi haqida yozganda ibtidoiy galava urug' jamoani o'zaro farq qiladilar. Ularning tasavvurlariga ko'ra, ilk odamsimon mavjudotlar ibtidoiy galasifatida umr kechirganlar, keyinroq urug' jamoa shakllangan. Ushbu ikki guruhning asosiy farqi shundaki, ibtidoiy galada barcha hayvon galalari kabi erkak va urg'ochi orasidagi munosabatlar muayyan tartibga solinmagan, urug' jamoada esa muayyan nikoh qoidalariga qat'iy rioya qilingan. Ma'lumki, insondan o'zga mavjudotlarda ushbu qoidalarga rioya qilish urf bo'lgan emas. Biologik jihatdan buning qat'iy zarurati ham yo'q. Demak, bu farqlanish asosan ma'naviy

ahamiyatga ega. Shunday ekan, bashariyat tarixi, ma'naviyat nuqtai nazaridan qaraganda, ibtidoiy galadan emas, urug' jamoaning shakllanishidan boshlanadi.

Inson ma'naviy kamolotida eng uzoq davom etgan bosqich **tosh asri** bo'lib, bu davrda inson va tabiat orasidagi munosabat nihoyatda yaqinb o'lgan. «Avesto»ning bizgach asqalanib yetib kelgan to'rt qismidan biri «Vendidad» kitobining ikkinchi bobida Jamshid (asli Yimavaxishta - go'zal Yima) haqidagi asotir (mif) bayon qilinadi. Ushbu asotir mazmuni quyidagicha:

Butun olamlar parvardigoridan Zardusht gapayg'ambarlik rutbasi inoyat bo'lgach, u tangriga murojaat qilib so'raydi: «Ey, butun dunyoning yaratuvchisi, muqaddas zot Axura Mazda (Oliy bilimlar egasi)! Sen mendan ilgari insonlardan qay biri bilan suhbat qilgansan, kimga ilk bor Axura Mazdaning muqaddas dinidan ta'lim bergansan!»

Oliy bilimlar egas ibo'lmish yagona tangri unga shunday javob qiladi:

«Ey, Haq bandasi Zardusht! Sendan ilgari men ilk bor insonlardan Yima (Jamshid)ga, chorva va yilqi podalari egasi o'shal go'zal insonga xabar yo'lladim. Menunga: «Ey, Vivaxvanta o'g'li go'zal Yima! Sen mening dinimni o'rganib, uni himoya etishga tayyorgarlik ko'rgin», dedim. Ammo, ey, Zardusht, ul go'zal Yimashunday javob qildi:»Men bunday vazifa uchun yaratilmagan bo'lsam, o'qimaganbo'lsam, men din-e'tiqodni chuqur o'zlashtirish va himoya qilishga qodir emasman». Shunda, ey, Zardusht, Men – Axura Mazda - ungabuyurdim: «Agar sen, ey, Yima, mening dinimni o'zlashtirish va himoya qilishga tayyor bo'lmasang, unda men yaratgan dunyoni obod qil, kengaytir. Sen ushbu yer yuzini himoya qilishga, ehtiyotlashga va boshqarib turishga mas'ul bo'l!»Va, ey, Zardusht, ul go'zal Yima menga javob qildi: «Men sen yaratgan dunyoni obod qilaman, uni kengaytiraman, uni himoya qilishga, ehtiyotlashga, boshqarib borishga men tayyorman.»⁵ Shundan so'ng 900 yil davomida Yima (Jamshid) yer yuzini obod qilib, turli hunarlarni ijoriy qildi. Boymoddiym adaniyat buniyod etildi. Ammoumrinin goxirida Jamshid yutuqlardan g'ururlanib ketib, kibrga

⁵ Брагинский И. С. Из истории таджикской и персидской литератур. М.-«Наука»-1972, с. 50-51

berildi. O'zini «yaratuvchi» e'lon qilib, butun xalqdan o'ziga sajda qilish, sig'inishni talab qila boshladi. Shungacha, rivoyat qilishlaricha, o'lim ham, kasallik ham, sovuq ham, ochlik ham bo'lmagan ekan. Jamshid o'zini «xudo» deb e'lon qilgach, yer yuziga o'lat tarqaydi, ochlik va qahraton sovuq boshlanadi. Va shundan keyin dahshatli yovuz kuch – Aji Dahaka yurtga bostirib kirib, o'z hukmronligini o'rnatgan va ming yil yurti zulmat qoplagan ekan.

Qur'oni karim Haqni botildan ajratish uchun noziletilgan kitob bo'lib, shusababdan Furqon (farqlabberuvchi) deb ham ataladi. Unda haqiqatlar ba'zan juda qisqa, ba'zan bir ishora bilan eslab o'tilgan. «Avesto» kitobida esa inson aqliy takomilidagi asotir tafakkur bosqichi ifodasini topgan. Shu sababli undagi voqealar bayoni ham asotir (mif) shaklida bo'lib, tarixiyv oqeli ko'ziga xos talqin etiladi. Qanday bo'lganda ham Alisher Navoiyqahramoni Ajdaho (Aji Dahaka)ni yengib o'tgan birinchi manzil yoki «Avesto»ga ko'ra Jamshid davri shartli ravishda ajdodlarimiz ma'naviy kamolotining birinchi bosqichi – **tosh asriga** ishora, deb qabul qilish joizdir. Bu davr qancha muddat davom etgani haqida hozir fan daturli bahslar ketmoqda, lekin bir necha ming yillar davom etgani shubhasiz. Bu davrda inson turli toshqurollar yasash va ulardan foydalanishni o'rgandi, kamon va o'q yoy, ibtidoiy spool idishlar kashf etildi, ibtidoiy chorvadorlik va dehqonchilik shakllandi, ilk uy hayvonlari va madaniy o'simliklar paydo bo'la boshladi. Bu davrda ajdodlarimiz asta-sekin **tabiat va inson aro uyg'unlik mavjudligini his eta boshlashdi, yaratuvchilik mehnati zavqini tuyishdi.**

Ushbu ma'naviyat unsurlari «Avesto» matnlari tarkibida o'z aksini topgan. «Avesto» matnlari G'arbiy Yevropa, Sibiryoki Afrika, Janubiy Hindiston mintaqalari sharoitini emas, bevosita bizning mintaqqa iqlimi, obi-havosi, yer-suv sharoitida tabiat va atrof-voqelikka nisbatan inson ongida shakllanishi mumkin bo'lgan munosabatlarni aks ettiradi. «Avesto» matnlari mazmunidan biz otobobolarimizning ona zaminga, xalqimiz uchun asosiy tiriklik manbai bo'lgan oqar suvga, olovga ixlosi, e'zozini aniq his qilamiz. Yana amaliy yaratuvchilik

faoliyati, ayniqsa, yerga ishlov berish va chorva hayvonlarini parvarishlash, ajdodlarimiz tarafidan nihoyatda muqaddas bir yumush, oliy ibodat deb qabul qilinganining ham guvohi bo'lamiz.

Darvoqe, ibodat masalasi. Ushbu masalaga kelganda ilk insoniyat ko'p adashdi, to'g'ri yo'lni idrok etish juda qiyin bo'ldi, masalan, dastavval inson tabiatdagi ayrim buyumlar yoki hodisalar qudratini aniqlayolmay, ularga sig'ina boshladi, hozirgi zamon Yevropa fanida «fetishizm» deb nom olgan yanglish e'tiqod shakli paydo bo'ldi. Jamshid fojiasi birinchi – tosh davri ma'naviyatidagi noqislik natijasidir, yangi ma'naviy bosqichga o'tish ehtiyojidan tug'ilgan inson ongidagi bo'hrondir. Insonni bu bo'hrondan qutqarish uchun yana vahiy lozim bo'lgan. Nazarimizda, ibtidoiy odam shu urini ilk bor ilohiy nur yoritgan.

Shunday qilib, insoniyat asosan tosh qurollaridan foydalangan ilk ibtidoiy jamoa davri ajdodlarimiz ma'naviy takomilida juda muhim bosqich bo'lib, Turkiston o'lkasi hududida kamon va o'q-yoy ixtiro qilingan 10-12 ming yil ilgari o'tmishdan boshlab, bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Uning so'nggi 4-5 minginchi yillaridan sug'orish asosidagi dehqonchilik va uy hayvonlarini maxsus parvarishlashga asoslangan chorvadorlik faoliyatining dastlabki shakllanish jarayonlari rivoj oldi va shu bilan bog'liq ravishda **bu davrdagi inson ruhida uning hayoti uchun muhim bo'lgan Ona tabiatga mehr, yer, suv, olovni e'zozlash, yaratuvchilik mehnatini ulug'lash kabi ma'naviy fazilatlar paydo bo'ldi.** Buning izlari birinchi navbatda mintaqamizda ilk bora yaratilgan mukammal yozma manba «Avesto» kitobida o'z aksini topgandir.

XULOSA

Bu davrlar qamrab olgan muddatlariga ko'ra o'zaro teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr VIII-Ixasrni o'z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o'lkamiz – Turkiston uchun 5 asr chamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko'proq fojialarga to'liq bo'ldi. Bu davrlar o'z navbatida yana qator bosqichlarga bo'linadi.

Milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilini o'rganishda manbalar ahvoli

1. Islomgacha ma'naviyatimiz takomili haqidagi eng muhim manbalar o'lkamizning bugungi milliy hududlaridan tashqarida topilgan bo'lib, asl matnlarning yaxlit va nisbatan mukammallari “Avesto” kitobi va turkiy tosh bitiklardir.

Ikkinchi guruh bilvosita ma'lumotlar bo'lib, qadim Shumer, Bobil va Ashshur, qadimgi Misr va Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shohan shohlaridan qolgan tosh bitiklarda aks etgan.

Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo'lib, ular bevosita yurtimiz hududidan yoki atrof-mintaqadan topilgan moddiy ashyolar va inshootlar bilan bog'liq.

To'rtinchi guruh manbalar rso'nggi davrlargacha og'zaki an'ana holida yetib kelgan xalqa dabiyoti, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar, xurofiyirim-sirimlar bo'lib, ular yuzasidan uzil-kesil xulosalar chiqarish, ayniqsa, murakkabdir.

Islomgacha ma'naviyat haqidagi tasavvurlarimiz, shu sabablarga ko'ra, baribir uzil-kesil bo'lishi qiyin va qancha qadim zamonlarga kirib borsak, shuqadar tarixiy haqiqat va afsonalar qorishib, chatishib ketadi).

2. Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va shonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy

yondoshuv imkoni jiddiy tarzda oshadi va millatning ma'naviy kamolotbosqichlari mintaqa madaniyati doirasida aniq tarixiylikkasbetadi.

3. Uchinchi davr bizga eng yaqin bo'lgani sababli uni o'rganish masalalari tadqiqotchilarning ancha keng doirasini qamrab olgan. Bu davr manbalari asosan o'zbek, tojik, rus va qisman boshqa qardosh xalqlar tillarida saqlangan. Ammo bu davr manbalarini o'rganishda ham muammolar yetarli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2011.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
5. Imomnazarov M.S. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., 1998
6. Imomnazarov M.S. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T., 1996.
7. Karamatov H. Xo'rlangan payg'ambarlar g'alabasi. T., 1998.
8. Komililov N. ma'naviyat – mustaqillik tayanchi. T., 1997.
9. Komilov N. Tasavvuf. 1-2 kitoblar. T., 1996-1998
10. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., 1999.
11. «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Samarqand, 1997.
12. Ma'naviy kamolot omillari. T., 1995.
13. Ma'naviyat - mas'ullik. 1-kitob (Ma'naviyat nashrlari. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi). T., 1997.
14. Ma'naviyat va komillik. 3-kitob. (Ma'naviyat nashrlari. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi). T., 1997.
15. Ma'naviyat iymondan boshlanadi. “Guliston”, 1995, №1
16. Ma'naviyat yulduzlari. T., 1999.
17. Ma'naviyatning oydin yo'li. 2-kitob (Ma'naviyat nashrlari. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi). T., 1997.